Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

LATIFIYNING "MAZHARUL AJOYIB" ASARIDA QO'LLANILGAN SHE'RIY SAN'ATLAR

Umedjon Abduraxmonovich Majidov*
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
✉ majidovumedjon22021985@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Latifiyning "Mazharul ajoyib" asarida qo'llanilgan she'riy san'atlarning badiiy-estetik vazifasi tahlil qilinadi. Asar hikoyaviy-didaktik nasr namunasi bo'lsa-da, undagi qit'a, bayt va nazm parchalari matnning badiiy qimmatini belgilovchi muhim qatlamni tashkil etadi. Tadqiqotda asarning tabdil matnidan olingan she'riy parchalar asosida tashbeh, tazod, tanosub, takror, talmeh, istiora, ishtiqoq, nido va mubolag'a singari badiiy san'atlar yoritiladi. Natijada "Mazharul ajoyib"dagi she'riy parchalar nasriy voqeabandlikni bezovchi qo'shimcha unsurlar emas, balki asarning g'oyaviy mazmuni, axloqiy xulosasi va obrazlar tizimini kuchaytiruvchi poetik vositalar ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar

Latifiy, "Mazharul ajoyib", she'riy san'atlar, tashbeh, tazod, talmeh, tanosub, istiora, takror, chig'atoy adabiyoti.

DOI: 10.5281/zenodo.21743031

KIRISH

Sharq mumtoz adabiyotida nasr va nazmning o'zaro uyg'unligi alohida badiiy hodisa sifatida qadrlanadi. Hikoyaviy-didaktik asarlarda nasriy bayon voqeani harakatlantirsa, she'riy parcha undagi g'oyani lo'nda, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalaydi. "Mazharul ajoyib" ham ana shu an'ana doirasida yaratilgan asarlardan bo'lib, unda hikoya, rivoyat, pand-nasihat va she'riy ifoda bir-birini to'ldirib boradi. Asarning lotin yozuvidagi tabdil matnida qit'a, bayt va nazm shaklidagi parchalarning tez-tez uchrashi uning nafaqat manbashunoslik va matnshunoslik, balki badiiyat nuqtayi nazaridan ham tadqiq etilishi lozimligini ko'rsatadi [1: 2-11].

Latifiy "Mazharul ajoyib"da mavjud rivoyaviy syujetni quruq bayon qilish bilan cheklanmaydi. U nasriy matn orasiga joylashtirilgan she'riy parchalar orqali voqea mazmunini umumlashtiradi, o'quvchini axloqiy xulosaga yo'naltiradi va obrazlarning ichki holatini badiiylashtiradi. Shuning uchun asarda qo'llangan she'riy san'atlarni aniqlash Latifiyning adabiy mahoratini, chig'atoy tilidagi badiiy ifoda imkoniyatlarini hamda "To'tinoma" an'anasining turkiy muhitda qanday poetik tus olganini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega.

"Mazharul ajoyib"dagi she'riy san'atlar bir xil vazifani bajarmaydi. Ba'zilari obrazlilikni kuchaytirsa, ayrimlari axloqiy fikrni ta'kidlaydi, yana bir qismi esa voqealar orasidagi ma'naviy bog'lanishni mustahkamlaydi. Quyida asarda qo'llanilgan asosiy badiiy san'atlar ko'rib chiqiladi.

Birinchi misolda vaqt va fursat haqidagi qit'a orqali takror va tanosub san'atlari yuzaga chiqadi:

Mug'tanam bil jahonda fursatni,
Vaqt agar o'tsa, bas yanib kelmas.
Gavhari vaqtning makonini,
Ushbu olamda hech kim bilmas.
Vaqti xushkim eligidin borsa,
Yanmag'i hech aning mumkin emas.

Bu parchada “fursat”, “vaqt”, “o‘tsa”, “eligidin borsa”, “yanib kelmas” birliklari bir ma’no maydoniga mansub bo‘lib, tanosub hosil qiladi. “Vaqt” so‘zining takrorlanishi esa fikrni mustahkamlaydi. Qit’a mazmunan didaktik xususiyatga ega: inson hayotidagi qulay fursatning qaytmasligi obrazli tarzda ifodalanadi [1: 2].

Ikkinchi misolda to‘tining so‘zga kirishi tasvirida sifatlash, istiora va mubolag‘a birgalikda qo‘llangan:

To‘ti kirdi so‘zga ul shirinzabon,
Zavq birla boshladi bir doston.
Majlis ichra tomdi shakar so‘zdin,
Zohir uldi ta’sir ma’ni o‘zidin.

“Shirinzabon” sifati to‘tining so‘z mahoratini bildiruvchi sifatlashdir. “Shakar so‘z” birikmasida esa so‘zning shirinlikka qiyoslanishi orqali istiora yuzaga keladi. “Majlis ichra tomdi shakar so‘zdin” misrasi oddiy xabar emas, balki nutqning ta’sir kuchini badiiylashtirgan ifodadir. Bu yerda she’riy parcha to‘tini oddiy qush emas, hikmatli so‘z egasi sifatida ko‘rsatadi [1: 6].

Uchinchi misolda talmeh va tashbeh san’atlari bir-biriga bog‘langan:

Go‘yo ki sitora yerga tushti,
Yusuf guzari shaharga tushti.

Birinchi misrada “sitora yerga tushti” ifodasi favqulodda go‘zallik va noyob hodisani bildiruvchi tashbehiy tasvirdir. Ikkinchi misradagi “Yusuf” obrazi esa mumtoz adabiyotda husn timsoli sifatida keng qo‘llangan talmehlardan biridir. Bu ishora orqali qahramonning go‘zalligi oddiy ta’rif bilan emas, balki adabiy xotirada mustahkam o‘rnashgan obraz vositasida ochiladi [1: 7-8].

To‘rtinchi misolda zohir va botin, surat va siyrat qarama-qarshiligi asosida tazod, shuningdek, istiora san’ati yuzaga keladi:

Agarchi zohirda erurman mushtipar,
Botinimdur maxzanu ganju guhar.
Boqmag‘il suratga sen, man siyratga boq,
Aql birla donishu fitratga boq.

Bu parchada “zohir-botin”, “surat-siyrat” juftliklari tazod san’atining yorqin namunasidir. “Botinimdur maxzanu ganju guhar” misrasida ichki ma’no xazina va javohirga qiyoslanadi. Shunday qilib, kichik va ojiz ko‘ringan to‘ti botinan ilm, donish va hikmat egasi sifatida talqin qilinadi. Bu san’at asarning asosiy g‘oyalaridan biri – tashqi ko‘rinishga emas, ichki ma’rifatga e’tibor berish fikrini kuchaytiradi
[1: 8].

Beshinchi misolda ilm mavzusi takror, istiora va mubolag‘a vositasida yoritilgan:

Ilmdur olam ichra gavhare,
Olam andin topti zebu-zivare.
Ilm erur olam ichinda ganju zar,
Ilm qadrin bilmagay har bexabar.
Ilm birlan olim ulg‘ay bas aziz,
Bo‘lg‘ay olam uchun ahli tamez.

Bu parcha “ilm” so‘zining takrorlanishi asosida qurilgan. Takror bu yerda uslubiy ortiqchalik emas, balki didaktik fikrni ta’kidlovchi poetik vositadir.

“Ilm – gavhar”, “ilm – ganju zar” tarzidagi ifodalar istioraviy xususiyatga ega. Muallif ilmni moddiy boylikdan ham yuksak ma’naviy boylik sifatida talqin qiladi
[1: 9].

Oltinchi misolda qalamga murojaat qilish orqali nido va jonlantirish san’atlari qo‘llangan:

Ey qalam kel hamzabon bo‘lg‘il manga,
Mahrami roz-i nihon bo‘lg‘il manga.
Sendin o‘zga hamzabonim yo‘q mani,
Mahrami sirri nihonim yo‘q mani.
Teralik qilma, ravon bo‘l ey qalam,

Zohir etgil safhada mishkin raqam.

Qalamga “ey qalam” tarzida murojaat qilinishi nido san’atini hosil qiladi. Qalamning “hamzabon”, “mahram”, “sir egasi” sifatida talqin qilinishi esa jonlantirish va istioraga yaqin badiiy holatdir. Bu parcha Latifiy matnida ijod jarayoni ham badiiylashtirilganini ko‘rsatadi. Muallif qalamni oddiy yozuv quroli emas, balki ma’no va sirni yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida tasvirlaydi [1: 11].

Yettinchi misolda qahramon go‘zalligi tashbeh va mubolag‘a orqali beriladi:

Yuzlari o‘xshar edi misli mohg‘a,
Oshiqi zor uldi shahzoda ham.
Bo‘ldi mast, bordi o‘zdin tamom,
Yig‘lar erdi kecha-kunduz mudom.

“Yuzlari o‘xshar edi misli mohg‘a” misrasi mumtoz she’riyatda keng tarqalgan tashbeh namunasidir. Oy go‘zallik, yorug‘lik va komillik ramzi sifatida keladi. Keyingi misralarda oshiqning “o‘zdin ketishi”, “kecha-kunduz yig‘lashi” mubolag‘a vositasida ifodalanadi. Bunday tasvir voqeani faqat xabar sifatida emas, ruhiy kechinma sifatida qabul qilishga xizmat qiladi [1: 13-14].

Sakkizinchi misolda sirni oshkor qilmaslik haqidagi baytda tazod va hikmatli ifoda uyg‘unlashgan:

Aydi to‘ti aro: ey doston,
Oshkora bo‘lmasun rozi nihon.
Fosh qilma roz nihoningni hech,
Oh, bog‘il la’l sen Xudo nekni saheh.

Bu parchada “oshkora” va “nihon” so‘zlari qarama-qarshi ma’no bildiradi. Shu asosda tazod san’ati yuzaga keladi. Mazmunan esa bayt pand-nasihat vazifasini bajaradi: sirni saqlash, ehtiyotkorlik va oqibatni o‘ylash g‘oyasi ifodalanadi. Demak, “Mazharul ajoyib”dagi badiiy san’atlar faqat bezak emas, balki axloqiy ma’noni tasvirlovchi vositadir [1: 16].

Yuqoridagi misollar “Mazharul ajoyib”dagi she’riy san’atlar bir necha qatlamda ifodalanishini ko‘rsatadi. Birinchi qatlam – lafziy go‘zallik: takror, ishtiqoq, nido, ohangdorlik matnni esda qolarli qiladi. Ikkinchi qatlam – ma’noviy chuqurlik: tazod, talmeh, istiora va tashbeh orqali voqea ortidagi axloqiy ma’no kengayadi. Uchinchi qatlam – kompozitsion vazifa: she’riy parchalar hikoyaning muhim burilish nuqtalarida kelib, voqea xulosasini qisqa va ta’sirli shaklda ifodalaydi.

Ayniqsa, “gul-bulbul-bahoriston”, “Yusuf-moh-sitora”, “zohir-botin”, “surat-siyrat”, “ilm-gavhar-ganj” kabi obrazlar tizimi asarning mumtoz adabiy tafakkur bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bunday ifoda vositalari Latifiyning turkiy nasrda mumtoz she’riy san’atlar imkoniyatidan keng foydalanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, asardagi poetik parchalar voqeani cho‘zish yoki bezash uchun emas, balki hikoyatning ichki ma’nosini umumlashtirish, qahramon holatini ochish va o‘quvchini xulosaga olib kelish uchun xizmat qiladi.

XULOSA

Latifiyning “Mazharul ajoyib” asarida qo‘llanilgan she’riy san’atlar matnning badiiy-estetik qimmatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Tashbeh go‘zallik va holatni jonli tasvirlashga, tazod axloqiy qarama-qarshiliklarni ochishga, talmeh matnni mumtoz adabiy xotira bilan bog‘lashga, tanosub obrazlar tizimini yaratishga, takror fikrni ta’kidlashga, istiora esa ma’noni obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Qit’a va nazm parchalari nasriy voqeabandlikka ichki ohang, ma’naviy yakun va badiiy ta’sir bag‘ishlaydi.

Demak, “Mazharul ajoyib”ni faqat hikoyaviy-didaktik asar sifatida emas, balki she’riy san’atlar bilan boyitilgan yuksak badiiy matn sifatida ham baholash lozim. Asardagi she’riy parchalarni chuqur o‘rganish Latifiyning ijodiy mahoratini, chig‘atoy adabiy tilining poetik imkoniyatlarini va “To‘tinoma” an’anasining turkiy adabiy muhitda qayta badiiylashgan shaklini yoritishda muhim ilmiy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Latifiy. “Mazharul ajoyib” asarining lotin yozuvidagi tabdil matni. Qo‘lyozma nusxalar asosida tayyorlangan material.

2. “Mazharul ajoyib” asarining Sharq qo‘lyozmalari markazi asosiy fondida saqlanayotgan 7428-A raqamli qo‘lyozmasi.

3. “Mazharul ajoyib” asarining Hamid Sulaymonov fondida saqlanayotgan 3229 raqamli qo‘lyozmasi.

4. Ҳасанова Ш. Тўтинома ва «Қуш тили» туркумидаги асарларнинг қиёсий-типологик ва текстологик тадқиқи: филол. фан. д-ри дисс. Тошкент, 2016.

5. Алимардонов А. Зияуддин Нахшаби и его «Тути-наме»: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Душанбе, 1970.